

## Respublika Olimpiadasini o'tkazishga doir

Respublika Olimpiadasini o'tkazish kafedraning dolzarb va mas'uliyatli masalalaridan ekanligini va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" vazifalarini bajarishda bu masalaga keng e'tibor berilayotganligini inobatga olib, "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrasida 2019 yil 28 mart kuni bo'lib o'tgan "Kasbiy pedagogika" fani bo'yicha 1-bosqich olimpiada natijalarini ma'lum qildi. 1 - bosqich olimpiadasida institutning Kasb ta'limi (Suv xo'jaligi va melioratsiya; Yer tuzish va yer kadastri, Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish) bakalavriat yo'nalishlaridan 9 nafar talabalar ishtirok etishdi. Respublika Olimpiadasini yuqori saviyada "Nizom" talablari asosida o'tkazish talab darajasida amalga oshirildi. "Kasbiy pedagogika" fanidan olimpiada 1-bosqich natijalariga asosan Kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 3-kurs 9-guruh talabasi *Asilova Ziyoda Axror qizi* **312 ball** natija bilan birinchi, Kasb ta'limi (Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish) bakalavriat yo'nalishi 2 kurs 4-guruh talabasi *Mirazamov Dilmurod* **290 ball** natija bilan 2-o'rinni, Kasb ta'limi (Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish) bakalavriat yo'nalishi 2 kurs 12-guruh talabasi *G'uzorov Ibroxim* **274 ball** bilan 3-o'rinni egalladi.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**